A.N.Boeva "Davlat oliy ta'lim muassasalarida o'qitish faoliyati samaradorligini baholash va uni oshirish yo'llari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida oliy ta'lim muassasalari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining nazariy asoslarini tadqiq qilgan hamda bitiruvchilarni tayyorlash sifatini baholash usullarini taklif yetgan. Tadqiqot ishida mutaxassislar tayyorlash sifatiga yakuniy attestatsiya natijalari va ish beruvchining ballari asosida baho berilgan[10]. A.N.Boeva o'z ilmiy yondashuvlarida oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash uchun sarf-xarajatlar ko'rsatkichini iqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilgan hamda uni hisoblash usulini taklif yetgan[11]. Mazkur usul oliy ta'lim xizmatlari sarf-xarajatlarini hisoblash, muassasa xarajatlarini rejalashtirish, shu bilan birga, oliy ta'lim sohasidagi strategik masalalarni yechishda foydali bo'lishiga qaramasdan, uni ta'lim xizmatlari ko'rsatishda oliy ta'lim muassasalariga narx belgilash vakolati berilmagan sharoitda qo'llash imkoni mavjud emas.

---

8 Ковалева Ю.Н. Основные подходы к оценке эффективности деятельности вуза. http://usurt.ru– сайт Уралского государственного университета путей сообщения.

9 Астапенко Н.В. Выявление критериев эффективного управления в образователных системах. // Современные проблемы гуманитарных и естественных наук. Труды Рязанского института управления и права. – Вып.15. С.-84-86.

10 БоеваА.Н. Оценка и пути повышения эффективности образователной деятельности государственных высших учебных заведений: Автореф. Дис. ... канд. экон. наук по. - Владивосток, 2011. -23с.

11 Боева А.Н. Совершенствование анализа затрат на подготовку специалистов в целях оценки эффективности деятельности высших учебных заведений. // Вестник Новосибирского государственного университета. Серия:с циално-экономические науки. –Н.: 2007. №2. С. -82-86.

Malliy ilmiy-tadqiqod olib borgan olimlarmizdan A.Daminov, B.Nazarov, M.Zakirovaning “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash masalalari” mavzusidagi ilmiy maqolasida jahon tajribasiga asoslangan holda ta’limni baholash tizimlari, shuningdek, ta’lim sifatini taqqoslash va baholash usullariga oid bir qancha ma’lumotlar keltirilgan[12].

Oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning strategik boshqaruv (KPI-eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari) samaradorligini aniqlashda quyidagilarni ko‘rib chiqish lozim:

- boshqaruv maqsadi va manfaatlarini amalga oshirishda insonlarning samarali mehnati;
- boshqarish salohiyati, ya’ni boshqaruv tizimida mavjud bo‘lgan barcha resurslar va ulardan foydalanish;
- boshqaruv mehnatining xususiyatlari; boshqaruvga sarf-xarajatlar, boshqaruv vazifalari, ularni tashkil yetish texnologiyasi va bajariladigan ishlar hajmi.

Oliy ta’lim tizimida strategik boshqaruv samaradorligi maqsad va natijalarni taqqoslagan holda boshqaruv jarayoni samaradorligining mazmunini bildiradi. Samaradorlik haqida gapirilganda yana shuni ta’kidlash joizki, oliy ta’lim samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka o‘z ta’sirini o‘tkazib, u quyidagi bir qator omillar bilan belgilanadi:

-professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati, ularning o‘rni va darajasi, darsga tayyorgarlik darajasi, mehnat staji va madaniyati, ular faoliyatining ijtimoiy jihatlari va boshqalar. Ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqlikdagi harakati, shuningdek, rektorat, fakultet, kafedralar va bo‘limlar faoliyati samarali boshqarilsa, professor-o‘qituvchilar mehnatining sifati oshirilsa, boshqaruv tizimining o‘zaro ta’siri muvofiqligi ta’minlangan hisoblanadi hamda ijtimoiy samaradorlik ko‘rsatkichi yuqori darajada bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish tashqi va ichki muhitlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bunday bog‘liqlikni ta’minlay olmaydigan oliy ta’lim muassasalari yuqori samaradorlikka yerisholmaydi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, amaliyotda tashqi muhitning samaradorlikka ta’siri o‘rganilmagan.

Quyidagi ko‘rsatkichlar professor-o‘qituvchilarning mehnat samaradorligini tavsiflaydi: o‘qishdan va ilmiy tadqiqot ishidan tushgan mablag‘, foyda, ming so‘mlik ishga sarflangan xarajat, bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan ish hajmi, oliy ta’lim muassasasida darsda ta’lim oluvchi talabalarning o‘rtacha soni, o‘qitish sifati, o‘rtacha ish haqi, ish vaqtidan foydalanish darajasi, qo‘nimsizlik, bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan chop yetilgan ishlar, bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni, bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan texnika, o‘quv yuklamasini bajarish, malaka oshirish, mehnat sharoiti, ustama  va boshqalar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraktsiya, analiz va sintez, induksiya va deduksiya,  qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta’lim muassasasi faoliyatini belgilaydigan bir qancha ko‘rsatkichlarga professor-o‘qituvchilar mehnatini samarali boshqarish jarayoni ta’sir ko‘rsatishi omil bo‘lishi mumkin. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

o‘quv jarayonini oqilona boshqarish, moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash, davlat granti, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, xorijiy va xo‘jalik shartnomalarini kengaytirish, oliy ta’lim sifatini oshirish, yuqori reytingga yega bo‘lgan iqtidorli talabalar sonini ko‘paytirish, muassasa raqobatbardoshligi va nufuzini yuksaltirish, himoya qilinadigan dissertatsiyalar, monografiyalar, xorijiy ilmiy jurnallarda chop yetiladigan maqolalar soni va salmog‘ini oshirish, professor-o‘qituvchilar tomonidan nashr yetiladigan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar sonini oshirish, fan, oliy ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro aloqadorligini samarali boshqarish orqali g‘oyalar tijoratlashuvini, byudjetdan tashqari va homiylik mablag‘larini ko‘paytirish, bitiruvchilarni ishga va ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishga yo‘naltirish masalalarini ijobiy hal qilish, xalqaro aloqalarni kengaytirishdan iboratdir.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, “ta’lim mazmunini tubdan yangilashda: ta’lim standartlari, ta’lim dasturlari, o‘quv darsliklari va qo‘llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta’minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok yetadi”[13]. Oliy ta’lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlaydi. Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o‘quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta’lim muassasalarida) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi asosida amalga oshiriladi.

“Ishlab chiqarishning talab-yehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo‘nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari

12 Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash masalalari.//  “Axborotnoma” ilmiy-uslubiy jurnali. -2012. -№1.
13 Barkamol avlod orzusi −Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999. – 171-bet.

suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo yetadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi"[14].

"Iqtisodiyotning muntazam o'sishi, bilimlarga yondashgan ishlab chiqarishni keng joriy qilinishi sababli, ularning malakali kadrlarga bo'lgan yehtiyoji oshadi. Ana shu kadrlarning asosiy qismi oliy ma'lumotga yega bo'lishi kerak. Bu o'z navbatida milliy oliy ta'lim tizimining rivojlanish darajasini belgilab beradi"[15].

Magistrlik ishida O'zbekistonda XX asr boshlaridan hozirgi kungacha bo'lgan muddat davomida oliy ta'limning rivojlanish jarayonini ikki bosqichga ajratgan holda o'rganish va tahlil qilish hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish masalalari ham ko'rib chiqilgan.

Ya'ni birinchi bosqich – XX asr boshlaridan to mustaqillik yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, unda mamlakatimiz hududida sobiq ittifoq davrida oliy ta'lim muassasalarining tashkil yetilishiga oid ma'lumotlar keltiriladi.

Ikkinchi bosqich – O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka yerishgandan to bugungi kungacha bo'lgan muddat davomida oliy ta'limning modernizatsiya qilinishiga oid masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Birinchidan, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent islom universiteti, viloyatlardagi tegishli pedagogik institutlar negizida Andijon, Buxoro, Guliston, Qarshi, Namangan, Farg'ona, Termiz, Urganch davlat universitetlari tashkil yetildi. Toshkent chet tillar instituti, Toshkent qishloq xo'jalik instituti va Toshkent aloqa institutlariga ham universitet maqomi berildi.

Ikkinchidan, yirik Toshkent politexnika instituti negizida qayd yetilgan Toshkent davlat texnika universitetidan tashqari yana ikkita – Toshkent kimyo-texnologiya instituti va Toshkent arxitektura-qurilish instituti tashkil yetildi. Toshkent davlat universiteti tarkibidan sharqshunoslik va huquqshunoslik fakultetlari ajralib chiqib, mustaqil Toshkent davlat sharqshunoslik va yuridik institutlariga aylantirildi.

Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarini joylashtirish borasidagi kamchiliklarni bartaraf yetish maqsadida barcha hududlarda oliy ta'lim muassasalari tashkil yetildi. Chunki ularning to'rtdan uch qismi bir qancha yirik shaharlarda, asosiy qismi yesa Toshkentda joylashgan yedi. Bular yuqorida qayd yetilgan 8 hududiy universitet va Toshkentdagi oliy ta'lim muassasalari filiallari negizida tashkil yetilgan Jizzax politexnika instituti, Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti, Namangan muhandislik - iqtisodiyot instituti (ayni paytda Namangan muhandislik-texnologiya instituti), Navoiy davlat pedagogika institutidir. Har bir oliy ta'lim muassasasi berilgan yangi maqomga ko'ra ta'lim shakli va mazmunini qayta tuzish bo'yicha aniq dastur asosida faoliyat olib borishi belgilandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, iqtisodiyot soha va tarmoqlarida talab qilinadigan oliy ma'lumotga yega mutaxassislarni tayyorlash sifatini yaxshilash borasida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2011-yil 20-mayda qabul qilingan "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1533-son qarori[16] bilan Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti – Andijon mashinasozlik institutiga;

– Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti – Namangan muhandislik-texnologiya institutiga;

– Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti – Buxoro yuqori texnologiyalar muhandislik-texnika instituti (keyinchalik Buxoro muhandislik-texnologiya instituti)ga, Toshkent Arxtektura–qurilish instituti –Toshkent Arttektura qurilish universitetga aylantirilib, ularning ixtisoslashuvi o'zgartirildi va qayta tashkil yetildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari sonining yildan yilga o'sish sur'atlarini kuzatish mumkin.

Oliy ta'lim sifatiga qo'yiladigan umumiy ye'tirof yetilgan xalqaro talablarga, O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi maqsad va vazifalariga muvofiq iqtisodiyot hamda biznesni boshqarish sohasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash Rossiya iqtisodiyot akademiyasining Toshkent shahridagi filialining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda amalga oshiriladi. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining ta'lim dasturlarini davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda amalga oshiruvchi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, oliy ta'lim rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar hamda ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idoralari hamda ular tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2017-yildagi PF-4958 sonli farmonga muvofiq 2017-yil 1-iyuldan boshlab oliy o'quv yurtidan

14 Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi – Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2001. – 42-bet.

15 Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi –Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2001. – 42-bet.

16 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1533-sonli qaror. "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 21 may.

keyingi ta'limni ikki pog'anali (PhD) falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi tayanch doktorantura, fan doktori (Doctor of science) ilmiy darajasini beruvchi doktorantura tizimi joriy yetildi. ushbu farmoni qabul qilindi hamda ushbu yo'nalish tubdan isloh yetildi.

2017-2024- o'quv yilida oliy ta'lim tizimida ilmiy pedagogik salohiyat 47,8% ni tashkil yetmoqda.

2023/2024 o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan professor o'qituvchi xodimlar soni 45,2 ming kishidan iborat bo'lgan.




O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchi xodimlar soni §1.1. 2-rasmda ko'rsatilgan.

Oliy ta'lim tizimida professor-o'qituvchilarning o'rtacha yoshi 44 bo'lib, shu jumladan, ayollarning o'rtacha yoshi 42 yoshni tashkil yetadi. Yosh tarkibi bo'yicha tahlil yetadigan bo'lsak, 60 yoshdan oshgan professor-o'qituvchilar soni jami professor o'qituvchilar sonining 14%ni, 50-60 yoshdagilar 19%ni, 40-50 yoshdagilar 24%ni, 30-40 yoshdagilar 29% ni, 30 yoshgacha bo'lgan professor-o'qituvchilar yesa 14%ni tashkil yetadi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim tizimida jami 1284 fan doktorlari, 6667 nafar fan nomzodlari faoliyat yuritmoqda. Jami fan doktorlarining 256 nafari, fan nomzodlarining 2105 nafari ayollardir[17].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, soni jihatdan yeng ko'p oliy ta'lim muassasalari joylashgan hududlar Toshkent shahri, Samarqand, Andijon, Buxoro, Farg'ona va Namangan viloyatlari, yeng kam oliy ta'lim muassasalari joylashgan hududlar yesa Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlari hisoblanadi. Sirdaryo viloyati Toshkent shahriga yaqin bo'lganligi uchun mazkur viloyatdan fuqarolar poytaxtga kelib o'qish imkoniyatlari mavjud. Xulosa qilib ayitganda, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini ko'tarish, ilmiy darajalilarni yoshartirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Oliy ta'lim muassalarida kadrlar faoliyatini boshqarishdagi O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va qiyosiy tahlil qilish natijasida yuzaga kelgan xulosalarga tayanib, kadrlar boshqaruvi masalasidagi muammolarning yechimini topish maqsadida quyidagi takliflar bildirildi:

- mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi kadrlarini boshqarish yelementlaridan biri bo'lgan rotatsiyani amalga oshirishda tashkilot ma'muriyatining vakolatlarini kengaytirish bilan birga javobgarligini ham oshirish maqbulligini ko'rib chiqish kerak;
- professor-o'qituvchilarni ishga olishda saralash va tanlash bosqichi yeng muhim bosqich hisoblanadi, shuning uchun bu bosqichga alohida ahamiyat berish va mexanizmini Yevropa mamlakatlarida joriy yetilgan tartibda amalga oshirish mumkin;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan 2006-yil 10-fevralda tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomning tegishli boblari va bandlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish kerak.

Oliy ta'lim muassasi rektori, prorektor va dekanlarini lavozimiga tayinlash bo'yicha maxsus Nizom yangilash va tayyorlash lozim, uni ishlab chiqishda mazkur lavozimlarga qo'yiladigan malakaviy talablarni yangicha zamon talablariga moslashtirish, lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod qilish, lavozimini o'zgartirish masalalari va ularning mexanizmlari, amalga oshirish tartibi detallashtirilgan holda aniq ko'rsatilishi zarur;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-dekabrdagi 624-sonli qarorida "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jaraёnini tashkil эtish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan Kredit-modul tizimini to'laqonlik bilan joriy эtish maqsadga muvofiq;

-universitetining boshqaruv, o'quv-uslubiy va xizmatchi xodimlari hamda professor-o'qituvchilarining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida faoliyatini baholash orqali ularni rag'batlantirish va moddiy qo'llab-quvvatlash tartibini belgilash to'g'risida NIZOM asosida amalga oshirish;

17 Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari statistik to'plam 2015-2016 y. Jadvalga O'zbekiston Davlat konservatoriyasi, Toshkent Davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti jadvalga kiritilmagan.

- Rahbar va pedagog xodimlarining odob-axloq qoidalari ishlab chiqilgan, shuningdek, muassasaning ichki tartib-qoidalari, jamoa shartnomalari va boshqa lokal hujjatlar bilan ham ularning faoliyati tartibga solinadi.

Yaponiya tajribasidan o‘rgangan holda ularning xizmat yetikalari bo‘yicha alohida qoida loyihasini ishlab chiqish lozim va bu, albatta, o‘zining samarasini beradi;

- oliy ta’lim muassasalarining rahbar xodimlarini ma’lum muddatda (har besh yilda) attestatsiyadan o‘tkazish tartibi joriy yetib, har uch yilda (Magistrlar uch yil imtiyoz, Muqobil malaka oshirishni inobatga olgan holda) professor-o‘qituvchilarni Malaka-atestati talabi orqali ishga qabul qilish, rahbarlarning o‘z ustida ishlashi ta’minlanadi va ularning bir joyda qotib qolishining oldi olinadi.

Rahbar xodimlar va professor o‘qituvchilar uchun belgilangan 288- soatlik malaka oshirish kurslarini joriy yetish, malaka-atestatini olish, yangi pedagogi-texnologiya va rahbar xodimlarning zamonaviy menejment usullari, yangi me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishish imkoniyatlarini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslarini o‘rganib chiqish natijasida quyidagicha xulosaga kelish mumkinki:

- globallashuv jarayoni ta’sirida mamlakatlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta’minlash oliy ta’lim tizimini isloh yetish va doimiy ravishda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga moslashtirib borish zarurligining tan olinishi;

- oliy ta’lim tizimini boshqarishni nomarkazlashtirishning zarurligi, davlat organlari tomonidan boshqarishni ma’muriy usullardan bilvosita, ya’ni iqtisodiy usullarga o‘tkazishning zarurligi;

- ta’lim sohasida oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy o‘quv yurtlar faoliyatini strategik menejment asosida olib borishning zarurligi;

- mamlakatlar aholisining barcha qatlamlariga oliy ta’lim olishga teng imkoniyatlarni yaratish asosida oliy ta’limni ommaviylashtirish, oliy ta’limni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy yetishga harakat qilish va uning samaradorligini oshirish, tahlil yetilgan mamlakatlarda oliy ta’limni rivojlantirish, uni tashqi muhitga moslashtirish, samaradorligini oshirish borasidagi mavjud muammolar u yoki bu darajada bizning mamlakatimiz ta’lim tizimiga ham xosligi;

-xorijiy mamlakatlarda oliy ta’lim tizimini takomillashtirish borasidagi quyidagi tajriba bizning mamlakatimiz uchun ahamiyatlidir:

- oliy ta’lim tizimini boshqarishni markazlashtirish va nomarkazlashtirish o‘rtasida oqilona nisbatni topish va boshqaruvda iqtisodiy usullarga o‘tish;

- ta’lim tizimida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish; oliy ta’lim sifatini oshirish; oliy ta’limni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy yetish.

Buyuk Britaniya oliy ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalarning ayrimlari, jumladan, vakant lavozimlarga tanlov ye’lon qilish mexanizmlarini, shuningdek, nomzodlarni tekshirish va saralash bosqichlarini mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarining xususiyatlariga moslashtirgan holda tatbiq qilish mumkin.

Yaponiya oliy ta’lim muassasalarida kadrlar faoliyatini boshqarishning huquqiy asoslari juda yaxshi ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni tahlil qilish natijasida mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga tatbiq yetish mumkin.

Professor-o‘qituvchilar, rahbar xodimlarni imtihon va tanlov asosida ishga olish, shuningdek, ta’lim muassasasi rahbari tomonidan tayinlanadigan odob-axloq nazoratchisi lavozimi va uning xizmat vazifalari hamda akademik xodimlarning odob-axloq qoidalaridagi ayrim bandlar bunga misol bo‘la oladi.

Mamlakatimizda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonida rivojlangan xorijiy davlatlar shakllangan oliy maktablarining ilg‘or tajribasidan samarali foydalanish hamda rivojlangan davlatlarda ilmiy daraja olgan malakali kadrlar salohiyatidan unumli foydalangan holda oliy ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Oliy ta’limda vujudga kelgan muammolarni hal yetish uchun mutaxassislar tomonidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish taklif yetilmoqda:

- mavjud mablag‘lardan oqilona va samarali foydalanish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyatini strategik rejalashtirish asosida muvofiqlashtirgan holda olib borishlari;

- shtatlarning oliy ta’lim muassasalarini 100% moliyalashtirishdan voz kechishlari;

- shtatlar muhtoj bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus fondlarni tashkil yetishlari, bundan tashqari shtat hukumatlari o‘z hududlarida zarur mutaxassislar soni kam bo‘lgan tumanlarda ta’lim tadbirkorligi zonalarini tuzishlari; -oliy ta’lim muassasalariga ajratilgan moliyaviy resurslarni ishlatish tartibini qayta ko‘rib chiqish, audit natijalariga asoslanib moliyaviy resurslar ajratilishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashlari;

- ayrim faoliyat yo‘nalishlaridan voz kechish, pul mablag‘larini ustuvor deb qabul qilingan yo‘nalishlarga yo‘naltirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" NMIU, 2019
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati". 2022-yil yanvar-dekabr. Toshkent – 2023-y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151 son qarori. http://lex.uz/
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi". PF-4947-sonli Farmoni http://lex.uz/
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 2909 - sonli qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son farmoni. http://lex.uz/
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-4391-son qarori. http://lex.uz/
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 60-son qarori. http://lex.uz/
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24 dekabrdagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-son qarori. http://lex.uz/
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli farmoni http://lex.uz/
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi farmoyish va qarorlari
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrdagi «Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish tug'risida»gi 967-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari bazasi. https://lex.uz/docs/4628440
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-son qarori http://lex.uz/
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi veb-sayti https://uza.uz/
19. Ilmiy monografiya, o'quv qo'llanma va darsliklar
20. Belyakova. S. A. Modeli finansirovaniya vuzov: analiz i otsenka.–M. : IEPP, 2005.
21. Kuzminov Ya.I., Yudkevich M.M. Akademicheskaya svoboda i standartы povedeniya //Voprosы yekonomiki. 2007. № 6.
22. Ilmiy maqola va konferensiya tezislari
23. Peter F. Drucker, A New Discipline, Success! Januaiy-Februaiy 1987, p.18.
24. Andrущak G.V. Kvazirынki v ekonomike obщestvennogo sektora.//Voprosы obrazovaniya, 2007 g. №2,
25. Ashurov Z.A. Korporativ boshqaruv mexanizmi va uning O'zbekistonda rivojlanishi. // "Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari" jurnali. – Toshkent, 2016. – №1.
26. BMTning 2030-yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish konsepsiyasi.
27. Boeva A.N. Sovershenstvovanie analiza zatrat na podgotovku spesialistov v selyax otsenki effektivnosti deyatelnosti vыsshix uchebnыx zavedeniy. // Vestnik Novosibirskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya:s sialno-yekonomicheskie nauki. –N.: 2007. №2. S. -82-86.
28. Gulyamov S.S. Zadachi sovershenstvovaniya sistemы korporativnogo upravleniya v Uzbekistane. // Korporativnoe upravlenie v Uzbekistane. Materialы nauchno-prakticheskoy konferensii. –T.: 2004.
29. Daminov A., Zakirova M., Nazarov B. Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash masalalari. // "Axborotnoma" ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent. –2012- y. 11-b.
30. Kuzmina N.G. Zarubejnыy opыt finansirovaniya obrazovaniya v usloviyax vozrastaniya avtonomii vuzov // Vestn. Volgogr. gos. un-ta. Ser. 3, Yekon. Yekol. – 2008. № 2 (13)
31. Marsinkevich V.I. Sfera obrazovaniya v sisteme Rossiya-Zapad.(problemы effektivnosti) // M.: IMEMO RAN, 2009. –234 s. Str-5.
32. Sovremennыy ensiklopedicheskiy slovar. Obrazovanie. Nauka. Innovatsii: [v 4-x t.]. T. 2 / B.S. Karimova, Ye.K. Kasымbekov, G.M. Kusainov i dr. — Almatы: YeVERO, 2014. — 414 s.
33. Usmonov B.Sh. Rivojlangan davlatlarda oliy ta'limi tizimi. //Ta'lim, fan va innovasiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2015-yil, 1-son, 7-8-betlar
34. Xankeldiyeva G.Sh. Korxonalar korporativ boshqaruvining baholash usullarini tahlil qilish.// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №5, 2017-y. sentabr-oktabr.
35. Elektron resurslar
36. http://lex.uz/
37. http:// https://edu.uz/uz

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

**2025. № 7**


© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz